

O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Mukimova Ziyodaxon Moxir qizi,
Namangan davlat pedagogika institute
1-kurs tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari tahlil etiladi. Shuningdek, interaktiv metodlar, multimedia vositalari va raqamli platformalarning nutqiy faoliyatni faollashtirishdagi o'рни hamda raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, raqamli texnologiyalar, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, boshlang'ich ta'lim, multimedia vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim samaradorligi

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье анализируются теоретико-методические основы развития речевых компетенций учащихся. Также рассматривается роль интерактивных методов, мультимедийных средств и цифровых платформ в активизации речевой деятельности, а также возможности использования цифровых технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: речевая компетенция, цифровые технологии, коммуникативный подход, интерактивные методы, начальное образование, мультимедийные средства, информационно-коммуникационные технологии, эффективность обучения

USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' SPEAKING COMPETENCES

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing students' speech competencies. It also discusses the role of interactive methods, multimedia tools, and digital platforms in enhancing speech activity, as well as the possibilities of using digital technologies in the educational process.

Keywords: speech competence, digital technologies, communicative approach, interactive methods, primary education, multimedia tools, information and communication technologies, learning effectiveness

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlariga tayangan holda, kelajak avlodni mustaqil hayotga tayyorlashning

samarali shakl va metodlari keng joriy etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, jamiyatda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni kamol toptirish ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Yosh avlodni boy milliy-madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimiz hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda Vatanga sadoqat va istiqloq g'oyalariga hurmat tuyg'usini shakllantirish ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mazkur jarayonlarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning barcha bo'g'inlarini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"[1], degan fikrlar ta'lim sohasida izchil va tizimli islohotlarni amalga oshirish zarurligini asoslab beradi.

Respublikamizda ona tili ta'limining bosh maqsadi sifatida mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda ravon ifodalay oladigan, shuningdek, o'zgalar fikrini to'g'ri anglaydigan barkamol shaxsni kamol toptirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Ushbu yondashuv umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, bugungi raqamli jamiyat sharoitida ushbu kompetensiyalarni shakllantirish an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni ham taqozo etmoqda.

Mazkur yo'nalishda muhim qadam sifatida boshlang'ich ta'limning "Davlat ta'lim standarti" ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Ushbu standart asosida o'quv dasturlari yangilanib, ta'lim mazmuni zamon talablariga moslashtirildi. Keyinchalik, 2005-yilda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari asosida davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi hamda takomillashtirildi. Shu bilan birga, umumta'lim maktablari uchun yaratilgan darsliklar ham yangilanib, o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirildi. Hozirgi bosqichda esa ushbu jarayonlar raqamli ta'lim resurslari, elektron darsliklar va interaktiv platformalar bilan boyitilmoqda.

Ushbu yangilanishlar nafaqat ta'lim mazmuniga, balki o'qitish metodikasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Natijada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, jumladan, raqamli ta'lim vositalarini joriy etish, innovatsion yondashuvlardan foydalanish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish zarurati yuzaga keldi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini raqamli muhit asosida tashkil etish o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda ona tili ta'limi har bir fuqaroning umumiy madaniyatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, o'quvchilarning nutqini o'stirish, ularning og'zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish ona tili ta'limining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar – audio materiallar, video darslar, interaktiv mashqlar va elektron matnlar – o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, audio yozuvlar orqali to'g'ri talaffuzni shakllantirish, video materiallar orqali matn mazmunini chuqurroq anglash, interaktiv topshiriqlar orqali esa mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek tili metodikasiga oid ilmiy va o'quv adabiyotlarda ham nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi"[2] nomli o'quv qo'llanmalarida o'quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish, ona tili mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish hamda darslar samaradorligini oshirish masalalari keng yoritilgan. Mazkur yondashuvni bugungi kunda raqamli texnologiyalar bilan boyitish orqali yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

Shuningdek, K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyevlarning "Ona tili o'qitish metodikasi"[3] darsliklarida boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning asosiy yo'nalishlari batafsil yoritilgan. Ushbu metodik yondashuvlar zamonaviy raqamli vositalar bilan integratsiya qilinganda yanada samarali bo'ladi. Masalan, "Ot" mavzusini o'rganishda interaktiv platformalarda

rasm asosida gap tuzish, soʻzlarni guruhlash, test topshiriqlarini bajarish orqali oʻquvchilarning nutqi va tafakkuri rivojlantiriladi.

“Son” mavzusini oʻrganishda esa raqamli oʻyinlar va animatsiyalar yordamida oʻquvchilarning qiziqishini oshirish mumkin. Bunda yarim izlanishli muammoli metodlar raqamli topshiriqlar bilan uygʻunlashtirilsa, oʻquvchilar bilimni mustaqil egallashga intiladilar. “Fe’l” mavzusini oʻqitishda esa video lavhalar asosida harakatni ifodalovchi soʻzlarni aniqlash, gap tuzish va ularni yozma shaklda ifodalash orqali nutqiy kompetensiyalar rivojlantiriladi.

Zamonaviy taʼlim jarayonida raqamli texnologiyalar differensial va individual yondashuvni amalga oshirish imkonini ham kengaytiradi. Masalan, oʻquvchilarning bilim darajasiga qarab turli murakkablikdagi topshiriqlarni taqdim etish, ularning mustaqil ishlashini tashkil etish va natijalarni tezkor baholash imkoniyati yaratiladi. Bu esa oʻquvchilarning nutqiy faoliyatini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasiga oid muammolar qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bundan tashqari oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarni lingvodidaktik rivojlantirishda oʻqituvchining darsga jiddiy yondashishi zarurligi A.D.Najimovaning “Ona tili darslarida oʻquvchilarning nutqini oʻstirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi” [4] nomli ilmiy tadqiqotida ham yoritilgan. Taniqli tilshunos, filologiya fanlari doktori A.Nurmonovning fikricha, oʻquvchining nutqiy kompetensiyasi muayyan til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir[5]. Ularning ilmiy ishlari bugungi kunda raqamli taʼlim muhitida yangi mazmun bilan boyitilmoqda. Xususan, raqamli platformalar orqali oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini yozib olish, tahlil qilish va baholash, yozma nutqni avtomatik tekshirish kabi imkoniyatlar metodikani yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Taʼkidlash joizki, zamonaviy taʼlim jarayonida interfaol metodlarni raqamli texnologiyalar bilan uygʻunlashtirish oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Masalan:

1. “Berilgan matn mazmunini tahlil qilish” usuli (raqamli shaklda)

Ushbu metodni elektron platformalar orqali tashkil etish mumkin. Matnni audio yoki video shaklda taqdim etish, so'ngra onlayn savol-javob (test, forum, chat) orqali tahlil qilish o'quvchilarning eshitish, tushunish va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, o'quvchilar o'z javoblarini audio yozuv ko'rinishida yuborishlari ham mumkin.

2. "Hikoyani takomillashtirish" usuli (raqamli muhitda)

Bu metodni Google Docs, Padlet yoki boshqa kollaborativ platformalar orqali amalga oshirish mumkin. O'quvchilar matnni birgalikda tahrirlab, unga o'zgartirishlar kiritadilar, izohlar yozadilar va fikr almashadilar. Natijada yozma nutq, tahliliy fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

3. "Rasm asosida dialog tuzish" usuli (multimedia asosida)

Rasmlar o'rniga qisqa videolar, animatsiyalar yoki slaydlar qo'llanilishi mumkin. O'quvchilar video asosida dialog tuzib, uni audio yoki video formatda yozib topshiradilar. Bu usul o'quvchilarning talaffuz, muloqot va situativ nutqini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

4. "Hammualiflar" o'yini (raqamli storytelling)

Mazkur metodni raqamli hikoya yaratish (digital storytelling) vositalari orqali boyitish mumkin. O'quvchilar hikoyaning davomini yozish bilan birga unga rasm, audio yoki video qo'shadilar. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi vositalar yordamida turli syujet variantlarini ishlab chiqish imkoniyati. Shuningdek, o'quvchi va talabalarning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish muammolari ham zamonaviy raqamli vositalar yordamida samarali hal etilmoqda. Masalan, elektron kundaliklar, onlayn forumlar, virtual sinflar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, bahs-munozaralarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlarni raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish samaradorligi tahlil natijalarida o'z aksini topdi. Tadqiqot jarayonida "matnni tahlil qilish", "hikoyani takomillashtirish", "rasm asosida dialog tuzish" hamda "hammualliflar" kabi metodlarning raqamli muhitda qo'llanilishi o'quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, matnni audio va video formatda taqdim etish hamda

onlayn savol-javoblar orqali muhokama qilish o'quvchilarning tinglab tushunish va og'zaki fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli platformalarda hikoyalarni birgalikda tahrirlash esa yozma nutqni takomillashtirish, mantiqiy izchillikni saqlash va ijodiy yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, rasm va video asosida dialog tuzish topshiriqlari o'quvchilarning situativ nutqini rivojlantirib, ularni real muloqot sharoitlariga yaqinlashtirdi. "Hammualliflar" kabi ijodiy topshiriqlar esa o'quvchilarning nafaqat nutqiy, balki tafakkur va tasavvur doirasini kengaytirdi. Ayniqsa, raqamli vositalar orqali yaratilgan mahsulotlar (matn, audio, video) o'quvchilarda o'z faoliyati natijasiga nisbatan mas'uliyat va qiziqishni oshiradi. Bundan ko'rinadiki, raqamli texnologiyalar differensial yondashuvni ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Turli darajadagi topshiriqlarni taqdim etish, tezkor teskari aloqa qilish va individual ishlash imkoniyati o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini tizimli tashkil etishga yordam beradi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish tizimli, izchil va innovatsion yondashuv asosida amalga oshirilishi zarur. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan ta'lim muhiti o'quvchilarning nutqiy, intellektual va kommunikativ rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uni samarali tashkil etish an'anaviy metodlar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarni tizimli ravishda integratsiya qilishni talab etadi. Nutqiy faoliyatni shakllantirishda interfaol metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning faolligini oshirsa, ularni raqamli muhit bilan uyg'unlashtirish ushbu jarayonning samaradorligini yanada kuchaytiradi. Multimedia vositalari, interaktiv platformalar va raqamli topshiriqlardan foydalanish esa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda kommunikativ faoliyatini faollashtirishda muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, raqamli muhitda tashkil etilgan ijodiy va hamkorlikka asoslangan faoliyat turlari o'quvchilarning nutqiy, intellektual

va ijtimoiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida differensial va individual yondashuvni amalga oshirish, tezkor teskari aloqa ta'minlash hamda o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining uzluksizligi va tizimlilikini ta'minlaydi.

Umuman olganda, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan interfaol metodlardan foydalanish yuqori pedagogik samaradorlikka ega bo'lib, ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda raqamli didaktik vositalarni yanada takomillashtirish, ularni o'quv jarayoniga keng joriy etish hamda metodik jihatdan asoslash dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 124 б.
2. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 219 б.
3. Қосимова К., Матчонов С., Фуломова Х ва б. Она тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ношир, 2009. – 352 б.
4. Нажимова А.Д. Она тили дарсларида ўқувчиларнинг нутқини ўстиришга хизмат қилувчи машқлар тизими.(таълим қорақалпоқ ва ўзбек тилларида олиб бориладиган бошланғич синфлар мисолида. Пед.фан.(PhD). докт... дисс. автореф. – Нукус: 2022. – 54б.
5. Nurmonov A., Ziyodullayeva G. O'quvchilarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari // Ma'rifat, 2014-yil 18-iyul.